

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA  
MADANIYAT VA SAN’ATNING IJTIMOIIY AHAMIYATI****G‘ulamov O.G‘. -***TAQU dotsenti, falsafa fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Yangi O‘zbekiston jamiyatining moddiy-ma’naviy asoslari yaratilayotgan, jumladan milliy fanimiz ham yangi bosqichga ko‘tarilayotgan bugungi kunda ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma’naviyati tushunchalarining konseptual mohiyatini ochish tadqiqotchilar zimmasidagi dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, umumiy aholining oltmish foizini yoshlar tashkil etuvchi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviyati, axloqi hamda ushbu jihatlarni yuksaltirish mexanizmlarini ishlab chiqish mas’uliyatli shu bilan birgalikda zaruriy ishlar sirasidandir. Chunki, taraqqiyot bevosita yoshlarning aql-idroki, bilim darajasi, intellektual qobiliyati hamda yaratuvchanlik salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Jamiyatda ijtimoiy omillar kishini shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy omillarning tarkibiy qismi hisoblangan tarbiya va ta’lim jarayonlari bevosita barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatli. Shu nuqtai-nazardan tarbiya va ta’lim jarayonlariga e’tibor qaratish – bolajon O‘zbekiston sharoitida muhim bo‘lib, ota-onalar, mahallakuy, maktabgacha ta’lim muassasalari, o‘rta umumta’lim maktablari, o‘rta-maxsus va oliy ta’lim tizimi, shuningdek xizmat va mehnat jamoalari zimmasiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Yuqorida sanab o‘tgan tashkilotlar faqatgina bitta funksiyani bajarmasdan, barkamol avlodni shakllantirish uchun kerak bo‘lgan barcha vazifalarni o‘z zimmalariga olishga mas’ul. Jumladan, yosh avlodni jismonan chiniqtirish bir qaraganda yuqoridagi tashkilotlarning barchasiga ham taalluqli emasdek. Lekin, yoshlar ma’naviyati, jumladan ularning tarbiyasi va ta’limi to‘g‘risida gap ketganda ularni jismoniy mukammallikdan ayri ravishda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu bob ijtimoiy-madaniy omillar va yoshlar ma’naviyati masalalarining nazariy mohiyati tadqiqiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda: “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi” [1, 261].

Demak, jamiyat a’zolari orasida hurmat va e’tiborning davomiyligini va uning doimiyligini ta’minlash uchun ham ma’naviy tarbiya masalalariga asosiy e’tibor qaratilmog‘imiz lozim. Ijtimoiy omillar jamiyatda inson kamolotiga ta’sir etuvchi ko‘plab omillar, chunonchi, atrof-muhit, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, qonun ustuvorligi, sud huquq tizimi, moddiy ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Jumladan xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklarini rivojlantirish, agrosanoat komplekslari, suv va eko tizimdan oqilona foydalanish, sog‘liqni saqlash, maorif tizimi ham ijtimoiy omillar sirasidandir. Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy barkamollik, ilm-fan va jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlar va xotin-qizlarga e’tibor hamda jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash kabi masalarni ham ijtimoiy omil o‘z tarkibiga qamrab olishini ta’kidlab o‘tdik.

Madaniy omillar esa inson dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilib, tafakkurida voqelikka bo‘lgan pozitiv munosabatini yuksaltirishga xizmat qiladigan, inson tafakkuri imkoniyatlari hamda ana shu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda inson qo‘li bilan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat namunalaridir. Madaniy omillar jamiyat a’zolari madaniyatining o‘rishini ta’minlashda muhim omil sanalib, madaniyat insonning atrof-muhitga bo‘lgan pozitiv munosabatini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi global taraqqiyot sharoitida yoshlar mavqei, jamiyatning ijtimoiy strukturasi tutgan o'rnini, milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda yoshlarning roli, milliy g'oya targ'ibida ta'sir ob'ekti sifatida yoshlar, milliy yuksalish va o'zlikni anglash, diniy-ma'rifiy omilning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, yoshlar va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, globallashuv sharoitida tendensioz o'zgarishlarning yoshlar madaniyatiga ta'siri, O'zbekistonda yoshlarga oid siyosiy-huquqiy yondashuvlar kabi masalalarni O'.Abilov, G.Tulenova, Z.Qodirova, S.Mamashokirov, I.Saifnazarov, O.Musaev, A.Ochildiev, E.Yusupov, J.Yaxshilikov kabi olimlar tadqiq etganlar.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy xavfsizligi va maqsadli faoliyatini tashkil etish, xorij tillarini o'rganishning ahamiyatini, siyosatshunos olimlar S.Jo'raev, N.Jo'raev, S.Atamuratov, Sh.Paxrutdinov, I.Ergashev, Q.Quronboev, G.Masharipovalar ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik, globallashuv jarayonlarining yoshlar ongiga ta'sirini, pedagog olimlar A.Do'lanov, M.Quronov, M.Lafasov, Z.Madaliyeva, pedagogik tarbiya va ta'lim tizimi islohotlarining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi rolini ochib berganlar.

Yoshlarning ma'naviy va jismoniy yetukligini ta'minlash masalalari davlatimizning Asosiy Qonunida ham aks etib, jamiyat a'zolarining, jumladan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari qonun asosida kafolatlanganligi quvonarlidir. Asosiy Qonunimizning to'qqizinchi bob 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi" [2,13], - deb belgilab qo'yilganligi, demokratik taraqqiyot sharoitida davlatning yoshlarga bo'lgan doimiy g'amxo'rlikidan dalolatdir.

*Yoshlar innovatsion g'oyalarni o'z tafakkuriga singdirib, kreativ industriyani harakatga keltirish salohiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-demografik guruhdir.*

Kreativ industriya deganda faqat iqtisodiy hamda sanoat sohasidagi industriyani emas, balki g'oyalar industriyasini ham o'z tarkibiga olgan konseptni tushunish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Vatan uchun qalqon, haqiqiy mardi maydon bo'lishga, kerak bo'lganda hatto o'z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch – bu avvalo ma'naviy-ma'rifiy tarbiya emasmi? Bunday tarbiyaning asosida o'zak masala bo'lib turadigan tushuncha – bu milliy ruhdur. Milliy ruh insonda ona allasi, uning oq suti bilan birga shakllanadi, desak, to'g'ri bo'ladi" [3,129].

Yangi O'zbekiston jamiyatining asoslari mustahkamlanayotgan bugungi taraqqiyot sharoitida yoshlar faoligini oshirish, bunda birinchi navbatda barkamol avlod ma'naviyatini yuksaltirish asosida ularning axloqiy-intellektual dunyosida pozitiv o'zgarishlarni ta'minlab borish muhim. "Hozirgi zamon sharoitida yoshlar ham davlat, ham jamiyat manfaatlari oqilona qo'shilib ketgan konstruktiv ijtimoiy faollikni namoyon qilishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish ayniqsa muhimdir" [4,174].

Shu bois, kreativ yondashuv asoslarini oiladan, bolalar bog'chasidan, maktab va boshqa o'quv muassasalari, xizmat va mehnat tashkilotlaridan boshlab, samarali yo'lga qo'yib, rag'batlantirib borish maqsadga muvofiq. "Ijtimoiy faollikni shakllantirishning an'anaviy institutlariga insonga ketma-ket ta'sir ko'rsatuvchi oila, yaqin atrofdagilar, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, ishlab chiqarish kiradi" [5,8].

Ma'lumki, bugungi taraqqiyot sharoitida madaniy omillar ma'naviyatning yuksalishini ta'minlashda asosiy strategik prioritet sifatida maydonga chiqib, munosabatlarning optimallasuvi ushbu omil bilan bog'liq bo'lib qoldi. Madaniyat innovatsion-g'oyaviy industriyani harakatga keltiruvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ya'ni, madaniyat kreativ industriyani harakatga keltiruvchi generator sifatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustahkam o'rin egallamoqda. Ayniqsa, turizm sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotini ta'minlovchi yetakchi omilga aylangan bugungi kunda madaniy omillarning ustuvor mohiyatga ega bo'lishi lozimligi ko'zga tashlanmoqda. Madaniy-ma'naviy omillarning ustuvorligi bu sohada investitsiyalarning kirib kelishini ta'minlamoqdaki, bugungi taraqqiyot sharoitida bu o'ta muhim.

Bunda "Ishning o'zini bilguncha ko'zini bil" yoki "Qalovini topsang qor ham yonadi", kabi maqollardagi ishbilarmonlikka undovchi hikmatlarni topa bilish, unga amal qilish – yoshlarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Umuman, ishbilarmonlik va

tadbirkorlikning asosida ham innovatsion yondashuv va kreativlikning mujassam ekanligi – ushbu masalada yoshlarga alohida e'tibor qaratishimizni taqozo etadi. Zero, Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir” [6,86]! Demak, yoshlarga bilim berish orqali ularda bunyodkorlik va kreativlikni ta'minlab borish – kelajakdagi milliy taraqqiyotimizning kafolati sifatida ahamiyatli.

Yuqorida sanab o'tilgan jihatlarni aql va idrokiga singdirib, uning tarixiy saboqlariga e'tibor qaratish natijasida O'zbekiston jamiyatida shaxsning ijtimoiyligi tobora ortib bormoqda. Modomiki shunday ekan, oliy o'quv yurtlari auditoriyalarida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ma'ruzalar va chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish talab etiladi.

Bundan ko'rinadiki, global ta'sir texnologiyalarining juda faollashgan, bunda ma'naviy-g'oyaviy tarbiyaning ilg'or ijobiy qirralari bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan salbiy jihatlari ham o'zligini namoyon etayotgan bir sharoitda ma'naviy tarbiya muhimdir. Ayniqsa, yoshlarimizda milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy tarbiyani rivojlantirish asosida ularda g'oyaviy immunitetni yuksaltirib borish yuqoridagi iqtibosda Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining mazmunini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, global ta'sirlar niqobida milliy taraqqiyotimizga turfa g'oyaviy tahdidlarning kirib kelishga urinishlari, hamda bunday salbiy jihatlarning ayrimlari ijtimoiy-ma'naviy hayotimizda kuzatilayotganligi sharoitida jamiyatda yetakchi kuch hisoblangan yoshlarimiz ongu-shuurida Vatan va xalq manfaatlari yo'lida bunyodkorlikka undovchi xislatlarni rivojlantirib, ularning amaliy faoliyatida ushbu jihatlarning tantanasiga erishish – Uchinchi Renessans asoslari mustahkamlanayotgan bugungi kunda har qachongidan ham muhim.

Mualliflar tomonidan to'g'ri ta'kidlangani kabi konstruktiv ijtimoiy faollikni namoyon etish bugungi taraqqiyot sharoitidagi muhim vazifadir. Konstruktiv ijtimoiy faollik kreativlikni ham talab etadiki, davr mohiyatini ifoda etuvchi har qanday konstruktivlik asosida kreativ yondashuv yotadiki, ushbu omilni ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, yoshlarda konstruktiv ijtimoiy faollikni shakllantirib yuksaltirish asosida oila yotar ekan, oilada sog'lom muhitni shakllantirish bilan bir qatorda tarbiyaviy jarayonlarda yosh bolalarda ijodiy yondashuv ko'nikmasini ham tarbiyalab borish zaruriy omildir.

Yoshlar ijtimoiy-demografik qatlam sifatida davlatimizning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda;

yoshlar kelajagimizni ta'minlaydigan buyuk kuch sifatida jamiyatni modernizatsiya va isloh qilishda markaziy o'rinda turishlari, bunda ularning qobiliyat va imkoniyatlari yetakchi omil bo'lib, ushbu jihatlarni shakllantirib rivojlantirish bugungi ziyolilarimiz zimmasidagi asosiy vazifa ekanligini chuqur his etishimiz lozim;

huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashda yoshlarning bilimi, qat'iyatligi, irodasi, axloqiy xususiyatlari muhim bo'lib, ushbu jihatlarga e'tibor berish kerak;

buning uchun yoshlar orasida an'anaviy-tarixiy qadriyatlarimiz targ'ibini yo'lga qo'yish, ularda milliy o'zlikni anglash hissini rivojlantirish, Vatan va xalq kelajagi uchun befarq bo'lmaslik xislatlarini yuksaltirish muhimligini bildiruvchi omillardir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, global ta'sir tendensiyalari mavjudligi sharoitida bunday ta'sirlardan xoli bo'lmagan bizning jamiyat o'z a'zolarining oldiga yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Bunday jarayonlarda jamiyatning tahdidbardoshlik salohiyatini oshirish, buning uchun ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lgan yoshlar qatlamini shakllantirish, umuman olganda jamiyatda ijtimoiy omilning barqaror mohiyatini vujudga keltirish dolzarb vazifa sifatida kun tartibidan o'rin olib, ziyolilar zimmasidagi mas'uliyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu fikrdan kelib chiqib, jamiyat o'z a'zolarining ma'naviy qiyofasini yanada yuksaltirish uchun bilim va ko'nikmalarni zamonaviy asoslarda yo'lga qo'yish lozim, desak to'g'ri bo'ladi. Ijtimoiy-madaniy hayotdagi transformatsiyalashuv jarayonlarini yaxshi idrok eta oladigan, axloqiy qiyofasi mukammal bo'lgan tashabbuskor yoshlar jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida davlatimiz

rahbarining doimiy diqqat-e'tiborida ekanligi pozitiv hodisa sifatida kelajakka umid uyg'otadi. Jamiyat a'zolari tanlangan vaziyatda umumjamiyat manfaatlari doirasida qarorlar qabul qilib, konstruktiv muloqotni olib borish salohiyatiga ega bo'lgan, vatan va xalq taqdiri uchun javobgarlikni his etuvchi, umuman olganda ijtimoiy faol shaxslar bo'lib yetishishlari bugungi pragmatik siyosatning talabidir. Albatta, mamlakat tashqi siyosatida hamda moddiy-iqtisodiy hayotdagi pragmatik faoliyat bugungi bozor munosabatlari sharoitida o'zini oqlaydi.

Lekin, umuman olganda yoshlarimiz ichki dunyosida shaxsiy manfaatga nisbatan jamiyat, umumxalq manfaatlari ustuvorligini ta'minlash bugungi ma'naviy yangilanishlar sharoitida muhim. Shu bois, davlatimizning barkamol avlodni kamol toptirib, ularni vatanimizning kelajagini ta'minlovchi kuch sifatida shakllantirish uchun bu borada olib borayotgan siyosati yoshlar faoligini oshirish, buning uchun ijtimoiy omillardan samarali foydalanish muhimligini kun tartibiga qo'yadi. Ya'ni barkamol avalod shaxsini shakllantirishda madaniy-ma'naviy ta'sir omillari bilan bir qatorda moddiy-ijtimoiy ta'sir omillaridan ham foydalanish lozimligini taqozo etadi. Jamiyat a'zolari, shuningdek yoshlarimizning ijtimoiylashuvida ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va axloq bilan bir qatorda davlatning yoshlar borasida olib borayotgan siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini jonlantirishning yoshlar ijtimoiy-ma'naviy qiyofasiga ta'sir etishi tabiiy. Yoshlar faoliyatining pozitiv mohiyatini ta'minlashda qonun ustuvorligi, moddiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning mavjudligi, radikalizm, ekstremizm va terrorizm tahdididan yoshlarni himoya qila olish, kambag'allikni qisqartirib, o'rta mulkdorlar qatlamining o'sishini ta'minlab borish, ekotizim va sog'likni saqlash sohasidagi tahdidlardan himoyalash kabi masalalarni o'z tarkibiga oladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Ўzbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Ўzbekiston, 2022. – B. 261.
2. Ўzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: Ўzbekiston, 2003. – B. 80.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Tom 4. – Toshkent: Ўzbekiston», 2020. – B.456.
4. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madayeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. – B. 214.
5. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madayeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006. – B. 214.
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Tom 3. – Toshkent: Ўzbekiston, 2019. – B. 186.

#### REZYUME.

Ushbu maqolada globallashtirish sharoitida yoshlar ma'naviyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish asosida ularda g'oyaviy immunitetni mustahkamlash masalalari tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, yangilanayotgan Ўzbekiston, **milliy qadriyatlar**, huquqiy madaniyat, milliy g'yoa, ma'rifat, yot g'yoalar, g'oyaviy immunitet.

#### РЕЗЮМЕ:

В данной статье на основе изучения факторов, влияющих на духовность молодежи в условиях глобализации, изучаются вопросы укрепления ее идеологического иммунитета.

**Ключевые слова:** молодежь, модернизирующийся Узбекистан, национальные ценности, правовая культура, национальная идея, просвещение, зарубежные идеи, идеологический иммунитет.

#### RESUME:

In this article, based on the study of factors influencing the spirituality of youth in the context of globalization, issues of strengthening their ideological immunity are studied.

**Key words:** youth, modernizing Uzbekistan, national values, legal culture, national idea, education, foreign ideas, ideological immunity